Matkarimova Malika Normatovna.

Urganch davlat tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o’qituvchisi

Urganch, Uzbekiston

malika.normatovna27@mail.ru

XIVA XONLIGI IQTISODIYOTINING ASOSIY TARMOQLARI.

Kalit so’zlar: Xiva xonligi, Iqtisodiyot, Dehqonchilik, Hunarmandchilik, Savdo- sotiq, Baliqchilik,Vaqf yerlari, Mulkchilik,Sug’oriladigan yerlar, Yer egaligi.

Annotatsiya. O’zbek davlatchiligi tarixida va Xiva xonligi tarixida XVIII-asr oxirida XX-asr boshlarida Xiva xonligidagi savdo va iqtisodiy aloqalarning o’rni beqiyos bo’lib, xonlikning kuch-qudrati va qadimiyligi timsoli hisoblanadi.Xiva xonligi tarixida bo’lib o’tgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar bugungi kundagi iqtisodiy rivojlanishlarning tarixiy ildizlari hisoblanadi. Xiva xonligida XIX asrning boshlarida hokimiyat tepasiga kelgan Qo’ng’irotlar sulolasi davrida ayniqsa vohada iqtisodiy jarayonlar, aloqalar rivojlantirildi.

ОСНОВНЫЕ ОТРАСЛИ ЭКОНОМИКИ ХИВИНСКОЕ ХАНСТВО.

Ключевые слова: Хивинское ханство, экономика, земледелие, ремесленничество, торговля, рыболовство, вакуфные земли, собственность, орошаемые земли, землевладение.

Аннотация: В истории узбекской государственности и в истории Хивинское ханство торгово-экономические связи в конце XVIII — начале XX века имели исключительное значение и являлись символом могущества и древности ханства. Социально-экономические процессы, происходившие в истории Хивинского ханства, выступают историческими корнями современного экономического развития. В период правления Кунградская династия, пришедшей к власти в начале XIX века, особенно активно развивались экономические процессы и связи в регионе.

MAIN BRANCHES OF THE ECONOMY OF THE KHIVA KHANATE.

Annotation: In the history of Uzbek statehood and the Khiva Khanate, trade and economic relations in the late 18th century and early 20th century held an incomparable significance, serving as a symbol of the khanate’s strength and antiquity. The socio-economic processes that took place in the history of the Khiva Khanate constitute the historical roots of today’s economic development. During the reign of the Qongirat dynasty, which came to power in the early 19th century, economic processes and relations in the region were especially developed.

Keywords: Khiva Khanate, Economy, Agriculture, Handicrafts, Trade, Fishing, Waqf lands, Property ownership, Irrigated lands, Land tenure.

Kirish. Xiva xonligi aholisi asosan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishgan bo’lib, dehqonchilik va u bilan bog‘liq bo‘lgan chorvachilik qishloq xo‘jaligining ikki asosiy sohasi hisoblangan. Dehqonchilikda g‘alla, paxta va poliz mahsulotlari yetishtirish yetakchi o‘rinda bo’lgan. Ekinzorlarning yarmidan ortig‘ida g‘alla yetis htirilgan bo’lib, g‘allachilikda asosan

kuzgi bug‘doy ekish yetakchi o‘rinni egallagan. Dehqonlarning don ekinlaridan mo‘l hosil olishlari hatto chet ellik tadqiqotchilarning manbalarida qayd etilgan. Don ekinlari ichida jo‘xori ekish bug‘doydan keyin ikkinchi o‘rinda turgan bo’lib, sholi esa, asosan, suv ko‘p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning 1/5 qismida paxta yetishtirilgan va xonlik iqtisodiyotida paxtachilik hamda pillachilik o’ziga xos ahamiyatga ega bo‘lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm qovunining dovrug‘i keng yoyilgan. A. Vamberining sayohat tafsilotlarida Xonlik orqali o‘tganida bu hududni “to‘xtovsiz ekin ekiladigan, sermahsul yerlar” deb ta’riflagan[1]. Bundan tashqari, xonlikda bog‘dorchilik ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri bo‘lgan. Bog’dorchilikda uzum, olma, anor, nok, shaftoli hamda ipak qurtining asosiy ozuqasi bo’lgan tut daraxti ham ko’p ekilgan. Bu mahsulotlar nafaqat ichki bozorni ta’minlagan, balki tashqi savdoda ham muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarida muallifning ta’kidlashicha, ushbu hududda yong‘oqdan boshqa barcha turdagi mevalar o‘stirilgan[2].

Xonlikning ichki va tashqi savdosi ayniqsa XVIII – XIX – asrlarda rivojlangan bo’lib, ichki savdo-sotiqda Xiva xonligining shahar maydonlaridagi hamda usti yopiq bozorlari alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Bozor yo‘lning ikki tarafiga ustaxona - do‘konlar qurilgan. Bozordagi savdo o‘rinlaridan foydalanganlik uchun savdogarlardan tagijoy deb nomlangan alohida soliq olingan. Xonlikdan, asosan, qorako‘l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksport qilingan. XVI asr oxirlaridan boshlab, Rossiya bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo‘lga qo‘yilgan bo’lib, Xiva elchilari, asosan, gazlama va to‘qimachilik mahsulotlarini olib borganlar. Chunonchi, Xiva elchisi 1620-yilda Qozon shahrida 670 kiyimlik mato sotganligi manbalarda qayd etilgan. Rossiyaga gilam, qoqi meva, qorako‘l terisi, o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ham olib borilgan. Xiva savdogarlari Rossiyaning Nijniy Novgorod yarmarkasida faol qatnashganlar. XIX asrning 20-yillarida Xivaga kelgan N. Muravyovning ma’lumotiga ko‘ra, xon hokimiyati bir vaqtning o‘zida bir nechta joyda savdo qilishni man etgan.[3]

Hunarmandchilik xonlik iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan hisoblanadi. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning 27 ta sohasi qayd etilgan bo’lib, amalda esa ular bundan-da ko‘p bo‘lgan. Hunarmandlar malakali usta bo‘lishi uchun ko‘p yil mashaqqatli mehnat qilishgan. Ular o‘z uyushmalariga ega edi. Bu uyushmalar hunarmandlarning faoliyatini tartibga solib turardi. Shu yo‘l bilan ularning manfaatini himoya ham qilardi. Uyushma boshlig‘i xonning xazina siyosatini o‘tkazuvchi shaxs ham hisoblanardi. Xiva ustalarining juda oz qismi xususiy ustaxona — do‘koniga ega edi. Hunarmand o‘z uyida ham do‘kon ochishi mumkin bo’lgan. Ko‘pchilik hunarmandlar xonga va boshqa badavlat kishilarga tegishli do‘konlarni ijaraga olib mehnat qilishgan. Hunarmandchilikda zargarlik, to’qimachilik, qulfsozlik, temirchilik, misgarlik, gilamchilik yetakchi turlar hisoblangan.Xiva xonligida iqtisodiy munosabatlar asosan agrar-dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va savdo aloqalariga tayangan bo’lib, xonlikda yer davlat mulki hisoblanib, undan foydalanish uchun turli ijtimoiy qatlamlar - mulkdorlar, ijarachilar va chorvadorlar davlatga belgilangan miqdorda soliq to'laganlar. Qo’ng’irotlardan Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq tizimi

[1] Vamberi A. Travels in Central Asia. New-York. 1865. 178 b.

[2] Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Ахмедова Б.А. – Ташкент: Фан, 1977. – с. 44.

[3] Муравьёв, Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 гг. Н. Н. Муравьёв. – Часть II. – Москва: Типография Императорской Академии наук, 1822. – С. 90.

soddalashtirilgan bo’lib, mahsulot solig'i o'rniga pul solig'i (solg'ut) joriy etilgan. Soliqlar esa markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilina boshlangan. Bu esa xazinaga tushumlar oshishiga, iqtisodiy boshqaruvning barqarorlashishiga olib kelgan. Shuningdek, irrigatsiya inshootlarining qurilishi va ta'miri orqali yangi yerlar o'zlashtirilgan bo’lib, bu esa qishloq xo'jaligini salohiyatini yanada oshirgan. Umuman olganda, Xiva xonligi iqtisodiyoti o'z davrida murakkab, ammo izchil rivojlanayotgan tizim bo'lgan.

Muhammad Rahimxon I davrida soliq yig'ish ishlarini markaziy hokimiyat zimmasiga olish, xonlik daromadlarini maxsus moliyaviy daftarlar orqali yuritish, xon tomonidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish tizimi joriy etilgan. Bu orqali mahalliy amaldorlarning soliqlarni o’zboshimcha o'zlashtirishini cheklash, davlat xazinasiga tushadigan daromadlarni yanada oshirish hamda iqtisodiy tizimni mustahkamlash imkoniyati yaratilgan.Shuningdek, yangi tizimda soliqlar yer maydonining kattaligi, mahsulotlarning turi va hosildorlik darajasiga qarab belgilangan. Muhammad Rahimxon I tomonidan amalga oshirilgan bu islohotlar, albatta, faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni tiklash yo'lida ham muhim tarixiy ahamiyatga ega bosqich hisoblangan. Xon tomonidan joriy etilgan soliq islohoti natijasida Xiva xonligining mulkdorlari iqtisodiy imkoniyatlariga qarab aniq tartibda uch guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga 10 tanobdan ortiq yerga ega bo'lgan yirik yer egalari kiritilgan bo’lib, ular yer hajmidan qat'i nazar, davlatga yiliga 3 tillo qat'iy soliq to'laganlar. Ikkinchi guruhga 5-10 tanob yeri bo'lgan mulkdorlar yiliga 2 tillo, uchinchi guruhni tashkil etgan mayda yer egalari (5 tanobgacha yeri borlar) esa 1 tillo miqdorida soliq to'laganlar.Yersiz yoki kam yerli ijarachilar, ya'ni korandalar, bevatan dehqonlar, vaqf yerlari foydalanuvchilari ham alohida toifani tashkil etgan. Ularning soliq majburiyati ijaraga olingan yer maydoniga muvofiq belgilangan. Shuningdek, Xiva xonligi hududidagi yarim ko'chmanchi va o'troq chorvador aholining iqtisodiy faoliyatiga ham soliq solingan bo'lib, ular davlatga xiroj (yer solig'i) bilan bir qatorda, chorvachilikka aloqador zakot (qoramol solig'i) ham to'laganlar. Bu jihatlar davlat tomonidan agrar qatlamni to'liq iqtisodiy nazorat ostida saqlashga intilganini ko'rsatadi. Xonlikda agrar sohaga aloqador infratuzilma va obodonlashtirish ishlari keyingi yillarda sezilarli darajada jadallashdi. Ayniqsa, Said Muhammadxon (1860-1863) davrida Amudaryo o'ng sohilidagi bo'z yerlarga suv chiqarilib, yangi serhosil yerlar o'zlashtirilgan. Bu holat vohaning demografik va iqtisodiy salohiyatini kengaytirish bilan bir qatorda, Xiva xonligining agrar strategiyasida yangi bosqichni boshlab berdi. Said Muhammad Soniy davrida (1863-1864) mamlakatni iqtisodiy barqarorlashtirish yo'lida tadbirkorlik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga keng yo'l ochildi. Shahar markazlarida savdo rastalari, do'konlar va ustaxonalarning kengaytirilishi orqali ichki bozor infratuzilmasi mustahkamlandi. Xonlikning Buxoro, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalari esa Xiva iqtisodiyotining tashqi savdo salohiyatini ta'minladi. Bu davrda Xiva shahrining o'zida 700 dan ortiq hunarmand kosiblarning faoliyati qayd etilgan, bu esa shaharning iqtisodiy markaz sifatida rolini mustahkamladi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida agrar sektorni yanada takomillashtirish va suv bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shohobod (Shovot), Polvon, Qilichniyozboy, Lavzon kabi qadimiy kanallar ta'mirlanib, suv o'tkazish imkoniyatlari kengaytirildi. Bundan tashqari, Sho'raxon va Bo'zyop kanallari rekonstruksiya qilindi, Lavzon kanalidan pastda esa Amudaryodan suv oluvchi 39 chaqirimli yangi kanal barpo etildi. Bu ishlar natijasida minglab tanob yerlar qayta o'zlashtirilib, eski yer maydonlari sug'orishga yaroqli holga keltirildi.

Xiva xonligida yer egaligining quyidagi turlari mavjud bo’lib, ular:

•1. Davlatga qarashli yerlar yoki podsholik yerlari;

•2.Xususiy shaxslarga qarashli yerlar;

•3.Diniy muassasalarga qarashli yerlar, ya’ni vaqf yerlaridan iborat bo’lgan.

Podsholik yerlari bevosita davlatga, xonga tegishli yerlar bo‘lib, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Davlat yerlariga doimiy sug‘oriladigan ekinbop yerlardan tashqari tashlandiq yerlar, qumlik, adirlar va yaylovlar, ko‘l va to‘qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari bosib olingan hududlar, xonga qarshi mulkdorlarning musodara qilingan yerlari, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi hisobiga ham kengayib borgan bo’lib, davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachi dehqonlarga, bevatan (yersizlar)larga foydalanish uchun bo‘lib berilgan.

Bunday yerlardan davlatga olingan hosilning 40-50 foizigacha mahsulot yoki pul ko‘rinishida soliq undirilgan bo’lib, davlat yerlari xonlik xazinasining asosiy manbayi hisoblangan. Xon o‘ziga xolis xizmat qilgan amaldorlarga, yaqin qarindoshlariga, sodiq xizmat qilgan navkarlarga va dindorlarga davlat yerlaridan in’om qilib bergan. Bunday yerlar soliqlardan ozod etilgan.

Ikkinchi turdagi xususiy (mulk) yerlar xonning shaxsan o‘ziga, uning yaqin qarindoshlariga, yirik boylarga, saroy amaldorlariga, harbiylarga va boshqa zodagonlarga tegishli yerlar bo‘lgan. Xonlikning suvga yaqin bo‘lgan o‘troq markaziy tumanlaridagi unumdor va serhosil yerlarning asosiy qismi mulkdorlar qo‘lida to’plangan bo’lib, XIX asr birinchi yarmiga oid ma’lumotlarga ko‘ra, mulk egalariga tegishli yerlar xonlikdagi barcha sug‘oriladigan yerlarning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, ayrim mulkdorlar ixtiyorida ikki-uch ming tanobdan o‘n minglab tanobgacha yer bo‘lgan. Misol uchun, Pitnak, Xazorasp va Sho‘roxon shaharlari hamda ularga tutash bo‘lgan qishloqlar amir ul-umaroga tegishli bo‘lgan. Muhammadaminxon o‘g‘li Abdulla to‘raga 20 ming tanobdan ortiq yerni in’om qilgan va hokazo.

Uchinchi tur bo’lgan Vaqf yerlariga diniy muassasalarga, masjid, madrasa, qabriston, xonaqolarga qarashli yer-mulklar kirgan. Bu mulklar diniy muassasalarga xon, amaldorlar va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Bunday yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida xonlikdagi vaqf mulkining umumiy hajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan. Xiva xonligidagi kam yerli va umuman yersiz, ot-ulovsiz dehqonlar ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lib, ular davlat, mulk hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlaganlar.

Xulosa. Ushbu soliq islohotlari va sug'orish inshootlarining rekonstruksiyasi Xiva xonligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, aholining turmush darajasini barqarorlashtirish va davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko'paytirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Bu tarixiy voqealar Xiva xonligining iqtisodiy siyosati ichida o'ziga xos o'zgarishlarni boshlab berganini ko'rsatadi.XVIII-asr oxiri va XX asr boshlarigacha xonlik iqtisodiyotining asosiy yo’nalishlari dehqonchilik, bog’dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo sotiq,baliqchiliklardan iborat bo’lgan.Baliqchilik ham xonlik iqtisodiyotida o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lib, ko’p tarmoqli o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan.Nafaqat aholining iste’mol manbasi balki, ichki va tashqi savdoda o’ziga xos xususiyatga ega tarmoq hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.Mahmud ibn Valiy. Bahr ul-asror fi manaqub ul-axyor. XVII asr qo'lyozma manbasi.

2.Ahmedov.B.A., To'laganov A. Xiva xonligi tarixi. Toshkent: Fan, 2006.

3. Vamberi A. Markaziy Osiyoga sayohat (Travels in Central Asia). London: John Murray, 1864.

4. G'ulomov Y.G Xorazmning sug'orilish tarixi. Qadimgi zamonlardan hozirgacha. – Toshkent, 1959. 313 bet

5. Zaks B.A. Xorazm vohasining irrigatsiyasi va dehqonchiligi tarixi. Toshkent: 1953.

6..Ahmedov.B.A. Новые сведения о Хиве // Общественные науки в Узбекистане, № 9. 1982.

7. Abidova, Z. (2023). Worship of trees in cultural practice of the uzbeks of the Khorezm oasis. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 10(3), 10-12.

8. G'ulomov Ya.G. Xiva xonligi tarixidan. Toshkent: 1959.